



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



o'z so'zlaringiz bilan qayta ifodalash va yozma tarzda bayon etish jarayoni amalga oshiriladi.

6. Xulosa chiqarish va umumlashtirish: mavzuni tizimli tarzda tartibga solish va asosiy fikrlarni birlashtirish orqali tahliliy fikrlash qobiliyatini mustahkamlash jarayoni. Bu bosqich o'quvchilarga olingan ma'lumotlarni yaxlit ko'rinishda anglash va amaliy qo'llash imkonini beradi.

Kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishda samarali metodlarni aniqlash, baholash mezonlarini takomillashtirish va turli auditoriyalarga moslashtirilgan matnlarni yaratish yo'nalishlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Bu nafaqat ilmiy bilimlarni keng ommaga yetkazishda, balki ta'lim jarayonining sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu tariqa, ilmiy-ommabop matnlarning kommunikativligi va ta'sirchanligi yanada kuchayadi, o'quvchilarning ilmiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norbekova F. Ilmiy-ommabop film matnining janr-stilisyik xususiyatlari // Ta'lim sifatini oshirishda tilshunoslik, xorijiy til va ababiyotini o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar. – Toshkent, 2023. –370 b.

2. Nusratova H. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. –Toshkent: 2023. –№ 12.

3. Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlar va ularning ilmni ommalashtirishdagi ahamiyati // Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos. – Namangan, 2023. –456 b.

4. Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – Namangan, 2024. –487 b.

TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

Seytaliyeva Nodiraxon
nodirabegim9907@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillarning rivojlanish yo'llari, ularning o'zaro munosabati, davrlar kesimida shakllanishi, xalqaro maydondagi o'rni, turkiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: turkiy tillar, lingvodidaktika, o'qitish texnologiyalari, zamonaviy yondashuvlar, metodika, tillararo integratsiya.

Abstract: This article discusses the development paths of Turkic languages, their interrelationships, their formation over time, their place in the international arena, modern approaches to teaching Turkic languages, new pedagogical technologies, and their importance in the educational process.



Keywords: Turkic languages, language didactics, teaching technologies, modern approaches, methodology, interlingual integration.

Kirish: Turkiy tillar – dunyoda eng ko'p tarqalgan tillar oilalaridan biri bo'lib, u Markaziy Osiyodan boshlab Sharqiy Yevropa, Sibir, Kavkaz, Yaqin Sharq va hatto Sharqiy Xitoygacha bo'lgan keng geografik hududlarda millionlab insonlar tomonidan qo'llaniladigan qadimiy tillar oilasidir. Ushbu tillar o'zaro Grammatik tuzilish, leksik birlik va fonetik xususiyatlari jihatidan yaqinlikka ega hisoblanadi.

Tilshunoslar turkiy tillarni 6 yoki 8 guruhga bo'lishadi va eng ko'p tarqalgan tasnifga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

Og'uz (turk, ozarbayjon, turkman);

Qipchoq (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird);

Uyg'ur-qarloq (o'zbek, uyg'ur) va sibir; chuvash, xoqoniy va boshqalar¹⁴⁷. Yuqoridagi tasni turli olimlar tomonidan onetik, morfologik va leksik mezonlar asosida ishlab chiqilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, turkiy tillarning ilk yozma na'munalari milodiy VIII asrga oid Orxon-Yenisey (O'rxun-Enesouy) bitiklarida uchraydi. Bu yodgorliklar qadimgi turkiy tilning grammatikasi, sintaksisi va leksikasi haqida muhim ma'lumotlar beradi¹⁴⁸. Shuningdek IX-XI asrda yaratilgan "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'otit turk" kabi asarlar turkiy tillarning o'sha vaqtdagi mukammal rivojlangan adabiy shakllarga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda turkiy tillarda so'zlashuvchilar soni 200 milliondan ortiq bo'lib, ularning ko'pchiligi O'zbekiston, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi mustaqil davlatlarda yashaydilar. Shuningdek, Xitoyda Uyg'urlar, Rossiyada Tatar va Boshqirdlar, Afg'aniston, Eron va Bolqon davlatlarida ham muhim turkiy diasporalar mavjud¹⁴⁹. Turkiy tillarning o'ziga xos jihati — ularning agglutinativ tuzilishga egaligidir. Bunda grammatik ma'no affikslar orqali ifodalanadi. Bu xususiyat ularni o'rganishda murakkablik tug'dirsa-da, mantiqiy va tizimli tuzilmani ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida tillar orasidagi madaniy, siyosiy va istisodiy aloqalar kuchayib borayotgan bir vaqtda, turkiy tillarning o'zaro o'rganilishi, rivojlantirilishi va ta'lim tizimiga joriy qilinishi yanada dolzarb mavzuga aylanmoqda. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillar nafaqat tarixiy jihatdan, balki ularning grammatik va leksik asoslari ham o'zaro bir biriga o'xshash holda rivojlangan. Bu esa ularni lingvodidaktik nuqtai nazaridan tizimli o'rganish va o'rgatish zaruratini yaratmoqda.

Zamonaviy lingvodidaktika esa bu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki til o'rganish metodlarining yangilanishi, kommunikativ yondashuvlarning kengayishi, raqamli qurilmalar orali ta'limning ommalashuvi aynan lingvodidaktik yondashuvlar orqali amalga oshadi. Turkiy tillarning o'rganilishi aqat tilshunoslik masalasi bo'lib qolmay, balki madaniyatlararo

¹⁴⁷ Baskakov, N.A. *Introduction to the Study of Turkic Languages*. M.: Hayka, 1981 y

¹⁴⁸ Tekin, T. *A Grammar of Orkhon Turkic*. Indiana University. . 1968 y

¹⁴⁹ Ethnologue. *Languages of the World*. 2023 <https://www.ethnologue.com>



muloqotni rivojlantiruvchi, mintaqaviy integratsiyani kuchaytiruvchi omil sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois ushbu mavzuni ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilish, amaliy dars jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud lingvodidaktik muammolarga yechim taklif qilish bugunimizning asosiy ilmiy masalalaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada turkiy tillar oilasining rivojlanish bosqichlari, ichki tuzilmalari, zamonaviy lingvodidaktik muhitdagi ahamiyatini ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Turkiy tillar qadimda buyon keng hududlarda tarqalgan bo'lib, ularning rivojlanishi uzoq tarixiy bosqichlardan iborat. Tilshunoslikda turkiy tillarning taraqqiyot bosqichlari asosa uch davrga ajratiladi: qadimgi turkiy davr, o'rta asr yozma manbalari davri va yangi(zamonaviy) davr. Har bir bosqichda turkiy tillarning fonetik, leksik va morologik sathlarida muhim o'zgarishlar bo'lgan.

1. Qadimgi turkiy til manbalari: Orxon-Yenisey (O'rxun-Enasoy) bitiklari

Qadimgi davr milodiy VI-X asrlarni o'z ichiga oladi. Orxon-Yenisey bitiklari bu davrning eng asosiy manbasi hisoblanadi. Bitiklar VIII asrga oid qadimgi turkiy tilning avvalgii yozma manba namunalari hisoblanadi. Bu yodgorliklar hozirgi Mongoliya hududidan topilgan va unda turkiy xalqlarning siyosiy hayoti, ur-odatlar va til tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

Orxon bitiklari turkiy tillarning fonetik tuzilmasi, ot va fe'l yasovchi affikslari, egalik qo'shimchalari va gap qurilishi haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu davrdagi til agglutinatativ xarakterga ega bo'lib, grammatik bog'lanishlar affikslar yordamida ifodalangan¹⁵⁰

2. O'rta asr turkiy til manbalari: "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk"

O'rta asr turkiy tillar davri XI-XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda turkiy xalqlarning madaniy va siyosiy jihatdan taraqqiyotga erishishi bilan birga yozma adabiyoti ham yukasaladi. Bu borada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarlari o'sha davrning til holatini aks ettiruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

"Qutadg'u bilig" – falsaiy-axloqiy doston bo'lib, uyg'ur yozuvida yozilgan va turkiy tildagi davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlarni aks ettiradi¹⁵¹. "Devonu lug'otit turk" esa dastlabki turkiy lug'atlar jumlasidan bo'lib, unda turkiy tillarning shevalari, iboralari, maqollar va matnlar tizimli tarzda berilgan. Bu asar turkiy tillarning ichki guruhlarini o'rganish uchun bebaho tilshunoslik manbai hisolanadi¹⁵².

3. Zamonaviy(yangi) turkiy til manbalari (XX-XXI asr)

Turkiy tillarnig yangi bosqichi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish harakatlari bilan bog'liq. Bu davrda ko'plab turkiy xalqlar o'z yozuvlarni yaratdi yoki isloh qildi, adabiy tillar shakllandi hamda matbuot vositalari rivojlandi. Jumladan, o'zbek, ozarbayjon, qozoq, tatar va boshqa

¹⁵⁰ Tekin T. "A grammar o Orkhon Turic" Indian university publication, 1968 y

¹⁵¹ Yusu Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". T.:Fan nashriyoti, 1983 y

¹⁵² Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk". T.: Sharq, 2006 y



ko'plab tillarda adabiy me'yorlar ishlab chiqildi, til islohoti jarayonlari boshlandi. XX asrda SSSR tarkibidagi turkiy tillar uchun avvaliga lotin grafikasida, keyin esa krill grafikasida alifbolar tasis etildi. Bu holat turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillar orasida ko'zga ko'rinar darajada o'zgarishlarga olib keldi. Lekin SSSR parchalanib davlatlar mustaqilliklarini e'lon qilganlaridan so'ng ba'zi davlatlar yana lotin grikasidagi aliboga qaytdi va bu holat tilning keng miqyosda axborot maydoniga integratsiyasini kuchaytirdi. XXI asrda turkiy tillar orasidagi ilmiy, madaniy va texnologik aloqalar kuchayib bormoqda. Internet multimedia, electron lug'atlar va tarjima tizimlari yordamida turkiy xalqlar o'rtasida lingvistik hamkorlik yana-da mustahkamlanmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda esa turkiy tillarni o'zaro solishtirish, ularni o'rgatish va saqlab qolish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda¹⁵³.

Zamonaviy lingvodidaktika tilni o'rgatishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganadigan fan sohasidir. U nafaqat tilshunoslik va pedagogikani, balki zamonaviy AKT ni ham o'z ichiga oladi. Lingvodidaktika til o'rganish jarayonini tashkil etish, baxolash, shaxsga yo'naltirish va zamonaviy metodlar bilan boyitish vazifasini bajaradi. Bugungi kunda bu soha kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, interaktivlik va multimodallikni ta'limga tatbiq qilish orqali sezilarli darajada takomillashmoqda¹⁵⁴.

Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarda til nafaqat grammatik tizim sifatida, balki madaniy, ijtimoiy va kommunikativ hodisa sifatida qaraladi. Shu sababli o'rgatuvchi va o'rganuvchi orasidagi hamkorlik, motivatsiya va individual yondashuv til o'rgatish jarayoning muhim komponentlari sifatida namoyon bo'ladi¹⁵⁵.

Livodidaktika o'zining maxsus ilmiy apparati va asosiy tushunchalar tizimi bilan ajralaib turadi.

- Til kompetensiyasi – fonetik, leksik, Grammatik, madaniy va pragmatic bilimlar yig'indisi.

- Kommunikativlik – til orqali samarali muloqotga kirish malakasi.

- Interaktivlik – dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol axborot almashinuvi.

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va bilish darajasini inobatga olish

Bu tushunchalar lingvodidaktik modellarni shakllantirishda, o'quv dasturlarini tuzishda va baholash tartibini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

XXI asr nafaqat texnologiya sohasi, balki ta'lim sohasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, til o'qitish metodikasida an'anaviy grammatik tarjima metodlari o'rnini kommunikativ, kompetensiyaga yo'naltirilgan, innovatsion va

¹⁵³ Johanson L. & Csato E. "The Turkic languages". London. Routledge, 1998 y

¹⁵⁴ Solihov B. "Zamnaviy lingvodidaktik yondashuvlar". T.: Ilm Ziyo, 2021 y

¹⁵⁵ Islomov M. "Til o'rgatishda kommunikativ kompetensiya". Samarqand. Registon nashriyoti, 2022 y



raqamli asoslangan metodlar egalladi. Quyidagi yondashuvlar alohida e'tirofga loyiq:

- Konstruktivistik yondashuv: O'quvchi bilimni aol ravishda mustaqil ravishda shakllantiradi, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi vaziani bajaradi.
- CLIL (Content and language integrated learning): Til va fan mazmuni birgalikda o'rgatiladi, bu esa bilimlarning integratsiyasiga xizmat qiladi¹⁵⁶.
- Flipped classroom: O'quvchilar asosiy nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtiradi, darsda esa amaliy mashqlar bajariladi¹⁵⁷
- Task based learning: Kundalik vazialar asosida o'quvchilarning ishtirokiga asoslangan ta'lim shakli¹⁵⁸.

Bu usullar o'rganuvchilarning mustaqil fikr yuritishi, kreytivligi va muloqotdagi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozigi kunga kelib til o'rgatishda raqamli texnologiyalar muhim vositaga aylangan. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar va virtual imkoniyatlar orqali o'quvchilar tilni istalgan joyida va xohlagan vaqtda o'rganish imkoniyatiga ega. Masalan: *Moodle, Google Classroom, Quizlet, Kahoot, Duolingo* kabi platformalar darslarni interaktiv, qiziqarli va zamonaviy tarzda tashkillashtirish imkonini yaratadi¹⁵⁹. Til o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'rganuvchilarga hayotiy vaziyatlar asosida tilni o'zlashtirish imkonini yaratishi bilan birga, multimedia materiallari orqali eshitish, ko'rish va yozma ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi hamda mustaqil o'rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari sun'iy intellekt va avtomatik baholashtizimlari yordamida o'quvchining bilim darajasi aniqlanadi va ularning o'zlashtirish tezligi individual ravishda nazorat qilinadi¹⁶⁰.

Bugungi kunda til o'rgatish jarayonida an'anaviy yondashuvlardan voz kechilib, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydigan, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida qurilgan metodlar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, turkiy tillarni o'qitishda bu yondashuvlar til va madaniyatning o'zaro uyg'unligini, real hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni va amaliy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv til o'rganishni faqat Grammatik qoidalarni yodlash emas, balki kundalik ehtiyojlarda til vositasida erkin fikr bildira olish, muloqotga kirisha olish, muammoli vaziyatdan chiqish va madaniyatlar aro munosabatlarni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish deb hisoblanadi. Bundy yondashuvlarda o'rganuvchining lingvistik, pragmatik, madaniy, kommunikativ va o'z o'zini baholash kompetensiyalari rivojlantiriladi.

¹⁵⁶ Coyle D. "Content and language integrated learning". Cambridge university press, 2010 y

¹⁵⁷ Bergmann J & Sams A. "Flip your classroom: Reach every student in every class every day" ISTE, 2012 y

¹⁵⁸ Ellis R. "task-based language learning and teaching". Oxford university press, 2003 y

¹⁵⁹ Abdug'afforov I. "Axborot texnologiyalari asosida til o'qitish". Buxoro. Fan va Taraqqiyot, 2022 y

¹⁶⁰ Karimova S. "Sun'iy intellekt va ta'lim". Namangan. Yangi ta'lim, 2023 y



Masalan: Turkiy tillar :rasida o'quvchi so'zlarni yodlash emas, balki ularni kontekstda ishlatish, muayan madaniy konnotatsiyalar bilan tushunishga yo'naltiriladi. Bu yondashuv o'quv markalarida ham, oliy ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda¹⁶¹.

Kommunikativ metod XX asr oxiridan boshlab, til o'rgatish jarayonida asosiy yondashuv sifatida shakllanadi. Bu metod tilni o'rganish jarayonida real muloqot vazziyatlarini yaratishga va o'uvchining aol ishtirokini rag'batlantirishga qaratiladi. Ayniqsa, turkiy tillar o'qitilishida bu metod o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tilni kontekstda o'zlashtirish, o'z fikrini mustaqiloda etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi¹⁶².

Bu metod bo'yicha dars jarayonida rol o'ynlari, dialoglar, muammoli vaziyatlar va autentik materiallardan oydanish orqali til o'rgatiladi. Natijada, o'quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki tilning amaliy qo'llanilishini ham egallaydi ¹⁶³

Hozirgi kunga kelib turkiy tillarni o'qitish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Bu holat ta'lim siatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda va zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarni talab etmoqda.

1. O'qituvchilarning malaka darajasi yetarli emas

Ko'pgina ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar turkiy tillarni o'rgatishda innovatsion metod va texnologiyalarni yetarlicha o'zlashtirmagan. An'anaviy uslubda dars o'tish hanuzgacha ustuvor bo'lib, bu esa til o'rganishda o'quvchilarning aol ishtirokini cheklaydi¹⁶⁴.

Bunday holatda quyidagicha yechi taklif qilish mumkin: O'qituvchilar :miy tarzda malakasini oshirishga qaratilgan treninglar, amaliy mashg'ulot va zamonaviy metodlar asosida ishlab chiqilgan kurslarni yo'lga qo'yish muhim.

2. O'quv-uslubiy va texnik resuruslarning yetarli emasligi

Zamonaviy darslarni tashkillashtirish vositalari – xususan, interaktiv darsliklar, multimedaviy materiallar, mobil ilovalar va onlayn platormalarning yetarlicha emasligi ta'lim jarayonini qiyinlashtirmoqda¹⁶⁵.

Bu holatda esa electron ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish, mavjud internet platormalarda turkiy tillarga oid maxsus bo'limlar ochish samarali yechim bo'lishi mumkin.

3. Til siyosatiga oid ziddiyatlar

¹⁶¹ G'afforova D. "kompetensiyaviy yondashuv asosida turkiy tillarni o'rgatish muammolari". Tl va adabiyot,N_3, 2021 y

¹⁶² Savginon S. "Interpreting communicative language teaching: Context and concerns in teaching education". Yale university press, 2002 y

¹⁶³ Xolmatova S. "Kommunikativ yondashuvda turkiy tillar o'rgatish tajribalari". Zamonaviy ta'lim,N_2, 2022 y

¹⁶⁴ Karimov N. "Til o'qitishning zamonaviy metodik asoslari". T.: an nashriyoti, 2022 y

¹⁶⁵ Rahimova G. "Elektron darsliklar va interaktiv vositalarnng samarasi". Til va ta'lim, N_4, 2023 y



Ayrim mintaqalarda (Xitoyda Uyg'ur tili, Rossiya Federatsiyasining ayrim subyektlari (masalan, Tatariston, Boshqirdiston Chuvashiya, Qrim), Ermeniston – ozchilik sifatida yashovchi O'zbek, Qirg'iz va boshqa turkiy tillar, Eron – ozarbayjon (ozar) tili, Afg'oniston – o'zbek va turkman tillari) rasmiy til bilan bog'liq cheklovlar mavjud bo'lib, bu turkiy tillarni o'qitish jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu holat ona tilini o'rganishga nisbatan qiziqshning sovushiga olib kelmoqda¹⁶⁶.

Bu vaziyatda esa hududlarda turkiy tillarni o'rganilishi uchun qonuniy asoslarni kuchaytirish, ularni ijtimoiy va madaniy hayotga faol joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baskakov, N.A. *Introduction to the Study of Turkic Languages*. M.:Hayka, 1981
2. Tekin, T. *A Grammar of Orkhon Turkic*. Indiana University. . 1968 y
3. Ethnologue. *Languages of the World*. 2023 <https://www.ethnologue.com>
4. Tekin T. "A grammar o Orkhon Turic" Indian university publication, 1968 y
5. Yusu Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". T.:Fan nashriyoti, 1983 y
6. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk". T.: Sharq, 2006 y
7. Johanson L. & Csato E. "The Turkic languages". London. Routledge, 1998 y
8. Solihov B. "Zamnaviy lingvodidaktik yondashuvlar". T.: Ilm Ziyo, 2021 y
9. Islomov M. "Til o'rgatishda kommunikativ kompetensiya". Samarqand. Registon nashriyoti, 2022 y
10. Coyle D. "Contet and language integrated learning". Cambridge university press, 2010 y
11. Bergmann J & Sams A. "Flip your classroom: Reach every student in every class every day" ISTE, 2012 y
12. Ellis R. "task-based language learning and teaching". Oxford university press, 2003 y
13. Abdug'afforov I. "Axborot texnologiyalari asosida til o'qitish". Buxoro. Fan va Taraqqiyot, 2022 y
14. Karimova S. "Sun'iy intellekt va ta'lim". Namangan. Yangi ta'lim, 2023 y
15. G'afforova D. "kompetensiyaviy yondashuv asosida turkiy tillarni o'rgatish muammolari". Tl va adabiyot,N_3, 2021 y
16. Savginon S. "Interpreting communicative language teaching: Context and concerns in teaching education". Yale university press, 2002 y
17. Xolmatova S. "Kommunikativ yondashuvda turkiy tillar o'rgatish tajribalari". Zamonaviy ta'lim,N_2, 2022 y
18. Karimov N. "Til o'qitishning zamonaaviy metodik asoslari". T.: an nashriyoti, 2022 y
19. Rahimova G. "Elektron darsliklar va interaktiv vositalarnng samarasi". Til va ta'lim, N_4, 2023 y
20. Xolmirzayeva D. "Til siyosati va ta'lim: muammo va yechimlar" Milliy til forumi materiallari, 2021 y

¹⁶⁶ Xolmirzayeva D. "Til siyosati va ta'lim: muammo va yechimlar" Milliy til forumi materiallari, 2021 y



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

